

QADIMGI TURONNING SO'NGGI BRONZA DAVRI DAFN MAROSIMLARINING DINIY-MIFOLOGIK TALQINI

Ibragimov R.Z^a

Annotatsiya

Bronza davrida Yevrosiyoning shimoliy dasht hududlarida yashagan Andronova madaniyati chorvador-dehqon jamoasi mintaqada quruq iqlimning vujudga kelishi va demografik o'sish jarayonida chorva yaylovlari hududining qisqarib borishi natijasida boshqa yerlarga ko'chishga majbur bo'lgan. Ularning bir qismi mil. avv. II ming yillikning ikkinchi choragidan boshlab Turon o'lkasining janubi-g'arbiy, janubi-sharqiy janubiy hududlariga ko'chgan.

* Correspondence to: Ibragimov R.Z. E-mail: ibragimovraxmon15@gmail.com

a Tarix fanlari bo'yicha falasafa doktori(PhD), Mustaqil tadqiqodchi

Bronza davrida Yevrosiyoning shimoliy dasht hududlarida yashagan Andronova madaniyati chorvador-dehqon jamoasi mintaqada quruq iqlimning vujudga kelishi va demografik o'sish jarayonida chorva yaylovlari hududining qisqarib borishi natijasida boshqa yerlarga ko'chishga majbur bo'lgan. Ularning bir qismi mil. avv. II ming yillikning ikkinchi choragidan boshlab Turon o'lkasining janubi-g'arbiy, janubi-sharqiy janubiy hududlariga ko'chgan.

Dasht chorvadorlarining diniy-mifologik qarashlari to'g'risida bevosita yozma manbalar mavjud emas. Shu sababli ularning ma'naviy dunyosi arxeologik ma'lumotlar hamda qadimgi diniy matnlarda, xususan, «Rigveda» va «Avesto»da uchraydigan o'xshashliklar asosida o'rganiladi. Biroq arxeologik ashyolar bilan diniy matnlardagi ma'lumotlarni qiyoslashda ehtiyotkorlik talab etiladi. Arxeologik manba marosimning moddiy ko'rinishini, diniy matn esa uning g'oyaviy-mifologik mazmunini aks ettiradi. Shuning uchun ular o'rtasidagi o'xshashliklarni bevosita aynanlik emas, qadimgi xalqlarning diniy an'analarning ehtimoliy ko'rinishi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, so'nggi bronza davri chorvador aholining kundalik hayoti turli marosim va urf-odatlar bilan tartibga solingan. Ularning diniy tushunchalarida tabiat kuchlari; olov, quyosh va ajdodlar kultiga sig'inish asosiy o'rin tutgan. Diniy qarashlarga oid ma'lumotlar qabr inshootlari, ingumatsiya, krematsiya, marhumning dafn etilish yo'nalishi va qabrlardan to-

pilgan boshqa moddiy ashyolarda o'z aksini topgan.

Turon o'lkasining so'nggi bronza davri Andronovo madaniyatiga oid dasht chorvador jamoalari diniy dunyoqarashi ko'proq dafn marosimlarida namoyon bo'ladi. Andronovo qabrlarida dafn etilgan marhumlarning boshi g'arb yoki janubi-g'arb tomonga qaratilgan. Ushbu holat Quyi Amudaryo hududi Tozabog'yob madaniyati (Itina, 1961, s.3-96; Itina, 1977, s.139-146), Zarafshonning yuqori oqimidagi Dashti Qozi, Mo'minobod (Isakov, Potyomkina, 1989, s.145-167); (Jo'raqulov va bosh., 1994, 105-106-b.), Sherobod vohasidagi Bo'ston VI (Avanesova, 2013. s.229-240) yodgorliklarida ham kuzatiladi.

Qadimgi xalqlar tasavvurida yer to'rtburchak yoki doira shaklida yoxud ularning biri ikkinchisining ichiga chizilgan shaklda bo'lgan. Markazda to'rtburchak qabr joylashgan aylana qabr-qo'rg'on esa koinotning o'ziga xos timsoli bo'lgan. Aynan shunday yo'nalish Rigveda matnlarda ham ko'rsatilib, dunyoning har bir tomonining o'z himoya qiluvchi ilohi bo'lgan. Indra sharqning, Voruna g'arbning, Soma shimolning, Yama esa sharqning qo'riqlovchi homiysi hisoblangan. Marhumlarni dunyo tomonlariga yo'naltirib dafn qilishga ahamiyat berilgan. Qadimgi hind-oriylar tasavvurida janub Yama va marhumlar olami bilan bog'langan bo'lsa, eroniyalarda shimol ko'pincha sovuqlik, zulmat va xavfli kuchlar keladigan yo'nalish sifatida qaralgan (Rigveda, 1999, s.136-137). Ehtimol, aynan mana shunday kosmologik tushunchalar qabrlarning qat'iy ravishda muayyan tomonga yo'naltirilishini belgila-

gan.

Andronovo madaniyati aholisining marhumlar jasadini qabrga oyoq-qo'llarini bukib, g'ujanak holatda dafn qilish an'anasi O'rta Osiyoning so'nggi bronza dasht chorvador jamoasi aholisida davom etgan. Bunday dafn udumi janubiy o'lkalarning o'troq dehqon jamoalarida qadimdan mavjud bo'lgan. "Rigveda"da ma'lumotlariga ko'ra marhumni ona o'z farzandini bag'rida saqlagani kabi asrashi va uning kelajakda yangi hayot uchun qayta tug'ilishi haqida ma'lumotlar berilgan (Rigveda, 1999, X.18.10–14). Ye.Ye. Kuzmina murhumning g'ujanak holatni ona-zamin bag'ridagi homila shakli sifatida qayd etgan (Kuzmina, 1986, s. 38). Umuman, marhumlarni qabrga g'ujanak holatda dafn etish odati o'troq dehqon va chorvador jamoalar orasida keng tarqalgan. Ko'pchilik tadqiqotchilar uni ona qornidagi homila holati, insonning ona-zamin bag'riga qaytishi va narigi dunyodagi hayotining davom etishi bilan bog'liq hodisa sifatida talqin qiladilar. Bu holatda qabr oddiy dafn joyi emas, balki ona qornining ramziy ifodasi va marhumning yangi holatga o'tish makoni sifatida namoyon bo'ladi. Shu tariqa, marhumning qabrga g'ujanak holatda qo'yilishi o'limni mutlaq yakun emas, balki qayta tug'ilishga olib boruvchi ma'lum bosqichi sifatida tushunish bilan bog'liq bo'lgan.

So'nggi bronza davri chorvador aholisining ayrim qabrlarda turli jinsga mansub ikki marhum, kam hollarda esa bir jinsga mansub kishilar bir-biriga qaratib dafn qilinganligi kuzatiladi (Sotnikova, 2013, s. 37-47). Bunday qabrlar chorvador jamoasidagi oilaviy, qarindoshlik va ijtimoiy munosabatlarning narigi dunyoda ham davom etishi haqidagi diniy tasavvurlarni ifodalagan bo'lishi mumkin. Ilgari erkak va ayol birga dafn qilingan qabrlarda erkak vafot etganidan keyin uning rafiqasi o'ldirilib, marhum bilan birga ko'milgan, deb hisoblangan. Biroq qadimgi yozma manba matnlardagi ma'lumotlar bunday talqinni barcha juft qabrlarga nisbatan tatbiq etish mumkin emasligini ko'rsatadi. Biroq qadimgi matnlardagi ma'lumotlarga ko'ra vafot etgan marhumning ayoli eri bilan narigi dunyoga ketishni yoki yashashni davom ettirishni o'zi tanlagan. Ammo ushbu dafn odati keng tarqalmagan va aksar hollarda ramziy tarzda bajarilgan. Rafiqasi bir lahza marhum erining yonida qabrga yotib, qaytib chiqgan (Rigveda, 1999, X, 18, 8). Shuning uchun juft mayitli qabrlarning barchasini majburiy qurbonlik odati bilan bog'lash o'rinli emas. Har bir holat marhumlarning dafn qilingan vaqtlari, ularning yoshi, jinsi, qarindoshlik aloqasi, suyaklardagi jarohat izlari hamda qabr qatlamlarining holatini yetarlicha o'rgangan holda xulosa chiqarish talab etiladi. So'nggi bronza davri chorvador aholisi marhumlarning jasadini ko'mish bilan birga kuydirib, kulini ko'mish, ya'ni krematsiya odati ham keng tarqalgan. Andronovo madaniyatining Alakul bosqichi aholisi orasida marhumlarni yoqib kulini ko'mish odati qisman uchragan, Fedorov bosqichida ularning soni keskin ko'paygan (Berseneva, 2020, s. 284-292). Yevrosiyo-ning shimoliy yerlaridan O'rta Osiyo hududiga ko'

chib o'tgan chorvador jamoasiga tegishli yodgorliklarida krematsiya odati bo'yicha dafn qilingan qabrlar aniqlangan. Krematsiya Janubiy Qozog'istondagi Tautari (Maksimova, 1952, s. 40), Toshkent vohasidagi Obiraxmat (Bernshtam, 1952, s. 20), Surxondaryodagi Jarqo'ton (Asqarov, 2023, 142-149-b.), Bo'ston VI (Avanesova, 2013, s. 18-20) va Janubiy Tojikistondagi Ilk Tulxar (Mandelshtam, 1968, s. 53-55) yodgorliklarida uchraydi. Ular orasida Bo'ston VI yodgorligi krematsiya marosimi mukammal o'rganilgan qabriston hisoblanadi.

Qabristonda N.A. Avanesova tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari davomida 36 ta krematsiya odati bo'yicha dafn qilingan qabrlar aniqlanib, ularning 7 tasi Sopolli madaniyatining Mo'lali va 29 tasi esa Bo'ston bosqichiga tegishli bo'lgan. Yodgorlikda xom g'ishtdan barpo qilingan jasad kuydirish uchun mo'ljallangan maxsus joylari mavjud bo'lgan. Ular marhumlar jasadini kuydirish tasodifiy holat emas, balki oldindan belgilangan diniy qoidalar asosida amalga oshirilganini ko'rsatadi.

Qadimgi xalqlar tasavvurida olov tiriklar dunyosi bilan xudolar va ajdodlar olami o'rtasidagi vositachi hisoblangan. Jasad olovga topshirilganda uning moddiy tanasi kuyib, ruhi ozod bo'ladi va ajdodlar makoniga yo'l oladi, degan tushunchaga ishonilgan. Rigvedada olov ma'budi "agni"dan marhumning jasadini to'liq yo'q qilmasdan ajdodlar oldiga yetkazish haqida hikoya qilingan (Rigveda, 1999, X, 16). Bu yerda olov marhumning jasadini yo'q qiluvchi vosita emas, balki boshqa holatga o'tkazuvchi va tashuvchi kuch hisoblangan.

Qadimgi xalqlar, xususan, hind-eroniy xalqlari tasavvurida olov ma'budi yoki muqaddas olov inson va ilohiy dunyo o'rtasidagi vositachi vazifasini bajaragan. Rigvedada "Agni" ma'budi marhumlarni ajdodlar olamiga yetkazuvchi kuch sifatida madh etiladi. Shuning uchun ruhning osmon va ajdodlar makoniga o'tishini tezlashtiradigan marosim sifatida talqin qilingan.

Yaqin o'tmishgacha krematsiya bilan bog'liq ayrim arxaik tasavvur va marosimiy amallarning sarqitlari saqlanib qolganligi etnografik tadqiqotlar jarayonida ham kuzatilgan. Keksa avlod vakillarining xotiralari va og'zaki ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy O'zbekistonning tog'li hududlaridagi ayrim qishloqlarda yashovchi ba'zi o'zbek urug'lari orasida vafot etgan yaqin kishilarning suyaklarini maxfiy tarzda yoqish bilan bog'liq holatlar uchragan. Ayniqsa, bir oila yoki yaqin qon-qarindoshlar orasida ketma-ket o'lim holatlari sodir bo'lganida, bu holat oddiy tasodif sifatida emas, balki avval vafot etgan marhumning ruhi tirik qarindoshlarini «o'z ortidan tortayotgani» haqidagi tasavvurlar bilan izohlangan.

Shunday holatlarda marhumning qabri ochilib, uning suyaklari yoqilgan va qaytadan ko'milgan, ayrim hollarda suyak qoldiqlari butunlay kuydirib yuborilgani haqida ma'lumotlar mavjud. Mazkur odat, avvalo, marhum ruhining tiriklar olami bilan bog'liqligini uzish, uning keyingi o'limlarga sabab bo'layotgani haqidagi tasavvurlarni bartaraf etish hamda oila a'zolarini navbatdagi kulfatdan muhofaza

qilishga qaratilgan irim amali sifatida namoyon bo'ladi. "Chig'atoy o'zbeklari" va tojiklarda mazkur holat "tortma", deb atalib, birinchi vafot etgan marhumning suyaklari qabrdan chiqarilib, bo'laklarga bo'lingandan keyin qayta dafn qilingan. Bu bevosita arxeologiyadagi "qayta dafn qilish" tushunchasi bilan qandaydir o'xshashlikdan dalolat beradi.

Shunga ko'ra so'nggi bronza davri dasht chorvador jamoalarining Qadimgi Turon hududiga kirib kelishi faqat demografik va xo'jalik jarayoni emas, balki diniy tasavvurlar va marosim an'alarining ham tarqalishiga sabab bo'lgan. Dasht chorvadorlari bilan mahalliy o'troq dehqon aholisi o'rtasidagi madaniy munosabatlar natijasida dafn urf-odatlarini yangi shakl va mazmun bilan boyigan. Bu esa Markaziy Osiyo xalqlarining diniy qarashlari, mifologiyasi, dafn va motam marosimlari genezisini o'rganishda arxeologik ma'lumotlar bilan qadimgi diniy matnlar va etnografik materiallarni o'zaro qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Аванесова Н.А. Бустан VI – некрополь огнепоклонников доурбанистической Бактрии. – Самарканд, 2013.
- [2] Асқаров А. Қадимги Турон энеолит, бронза ва илк темир даври цивилизациялари тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 2023.
- [3] Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // Материалы и исследования по археологии СССР. – № 26. – М.-Л.: Наука, 1952.
- [4] Берсенева Н.А. Могильник Кулувчи VI и кремация в обществах эпохи бронзы Южного Урала // Кулувчи VI – могильник позднебронзового века в Южном Зауралье. – Челябинск, 2020.
- [5] Жўрақулов М., Аванесова Н.А., Амиркулов Б.А. Зарафшон воҳасининг ибтидоий маданияти. – Самарканд, 1994.
- [6] Исаков А., Потёмкина Т.М. Могильник племен эпохи бронзы в Таджикистане // Советская археология. № 1. – М.:Наука, 1989.
- [7] Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья. – М.: Наука, 1977.
- [8] Итина М.А. Могильник бронзового века Кокча 3 / Материалы Хорезмской экспедиции. Вып. 5. – М.: Наука, 1966.
- [9] Кузьмина Е.Е. Древнейшие скотоводы от Урала до Тянь-Шаня. – Фрунзе: Илим, 1986.
- [10] Максимова А.Г. Могильник эпохи бронзы Тау-Тары. – Алма-Ата, 1952.
- [11] Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане // Материалы и исследования по археологии СССР. № 145. – Л.: Наука, 1968.
- [12] Ригведа. Мандалы IX–X / Издание подготовила Т.Я. Елизаренкова. – М.: Наука, 1999.
- [13] Сотникова С.В. Об отражении близнечного культа в погребальном обряде андроновского населения // Вестник Пермского университета. История. № 1 (21). – Перм, 2013.